

**Loyihalar bo'yicha Mustaqil Hisobdorlik Mexanizmi (IPAM) tomonidan eslatma**

Murojaat qiluvchilar uchun qasos va bosim xavfi yuqori bo'lgani sababli shaxsini maxfiy saqlashni so'rashgan. Shu munosabat bilan, asl so'rov oshkor etilmaydi va IPAM jamoatchilik uchun mazkur qisqacha xulosani taqdim etadi. Shu bilan birga, IPAM ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonida xavfsizlik masalalarini inobatga olgan holda, asl mazmuni imkon qadar saqlab qolishga harakat qilganini ta'kidlaydi.

**2026/02-sonli Indorama Agro Capex krediti bo'yicha ish**

**So'rov xulosasi**

2026-yil 2-yanvarda IPAM O'zbekistondagi Indorama [Agro MChJ \(Op ID 50879\)](#) va [Indorama Agro Aylanma Kapital Krediti \(Op ID 51011\)](#) loyihalari bo'yicha shikoyat qabul qildi. So'rov mijozning besh nafar sobiq xodimlari tomonidan taqdim etilgan. So'rov beruvchilar o'z shaxslarining maxfiylikini saqlashni so'rashgan.

So'rovda quyidagi zarar haqidagi da'volar ko'tarilgan:

**(i) Mehnat huquqlarining buzilishi.**

Mijoz so'rov beruvchilarni o'z ichiga olgan yuzlab tashkilot ishchilarini noqonuniy ravishda ishdan bo'shatgan, shuningdek tahdid, ta'qib va qo'rqitish usullarini qo'llagan. Sud tomonidan bir necha bor ishga qayta tiklash to'g'risida qaror chiqarilganiga qaramay, ilgari ishdan bo'shatilgan ishchilarni ta'qib qilish davom etgan. So'rovda soxta imzolar qo'llangani, mehnat munosabatlarida vakolatlarni suiiste'mol qilish va majburlash holatlari, jumladan ishdan bo'shatish tahdidlari hamda asossiz ravishda bo'ysunmaslik uchun qasos choralari qo'llangani haqida da'volar mavjud.

Mijoz ishdan bo'shatishni oqlash maqsadida milliy mehnat qonunchiligiga zid ravishda muddatli mehnat shartnomalarini o'zgartirgani va/yoki qo'llagani, ishchilarning kerakli huquqiy himoya vositalaridan foydalanishiga yoki ishga qabul qilish hamda ishdan bo'shatish bo'yicha qarorlarga qarshi chiqish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni olishiga to'sqinlik qilgani, shuningdek tashqi bosim o'tkazgani natijasida kasaba uyushmasi intizomiy va ishdan bo'shatish bilan bog'liq masalalarga aralashishdan bosh tortgani ta'kidlangan.

**(ii) Sog'liqni saqlash va xavfsizlik tartib-qoidalariga beparvolik.**

Mijoz himoya vositalari va tegishli jihozlarni taqdim etmaslik orqali ishchilar xavfsizligini e'tiborsiz qoldirgani aytilgan.

**(iii) Qasos olish va tahdidlar.**

Mijoz noqonuniy vaziyatlarga qarshilik ko'rsatganidan so'ng so'rovchilarga nisbatan qasos choralari qo'llagani; ishchilar xavfsizlik xodimlari tomonidan qo'rqitish va psixologik bosimga, jumladan ishga qabul qilish to'g'risidagi qarorlar bilan bog'liq shantaj va

majburlashga duchor qilingani; shuningdek, huquqiy himoya izlayotgan yoki boshqaruv harakatlariga qarshi chiqqan ishchilarga nisbatan kengroq qo'rqitish amaliyoti mavjud bo'lgani da'vo qilingan.

**(iv) Atrof-muhitning ifloslanishi.**

Kasbi tumanidagi Indorama Agro paxtani qayta ishlash zavodi yaqinida yashovchi mahalliy aholi chang filtrlash tizimlarining mavjud emasligi yoki nosozligi tufayli havoning kuchli ifloslanishiga duchor bo'layotgani taxmin qilinmoqda. Chang chiqindilari bir nechta mahallalarga ta'sir ko'rsatishi va sog'liq uchun xavf tug'dirishi mumkinligi qayd etilgan.

**Siyosat buzilishining taxminiy holatlari**

YTTB o'z mijozining quyidagi ishlash talablariga rioya etishini ta'minlay olmagan ta'kidlanadi:

- **1:** Ijtimoiy va ekologik xavflar hamda ta'sirlarni baholash va boshqarish
- **2:** Mehnat va ish sharoitlari
- **3:** Resurslardan samarali foydalanish hamda ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish
- **4:** Sog'liqni saqlash, xavfsizlik va himoya.